

O'SPIRIN YOSHDAGI O'QUVCHILARDA KASB TANLOVINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGNING O'RNI

SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMANI
58- UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI PSIXOLOGI
JO`RAYEVA GULBEKA ERKIN QIZI

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'spirin yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning dolzarb muammolari haqida fikr yuritilgan. O'spirinlarni kasbga yo'naltirishning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo ekanligi, bu ikki nuqtai nazar har doim bir – birini to'ldirib kelishligi, shuningdek, kasbga yo'naltirishning individual psixologik xususiyatlarining imkoniyatlari yoritilgan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, psixologik xususiyatlar, fotoko'zgazma, ta'lim, tarbiya.

KIRISH QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 06.11.2020 - yildagi PF - 6108 - son farmoniga asosan 2021-2022 - o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarni o'z qiziqish va iqtidorlariga mos kasbni tanlab olishi, kelajakda o'z munosib o'rnini topishlari, ijtimoiy - kasbiy faoliyatda yetarlicha muvofaqqiyatga erishlari uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etildi.

ASOSIY QISM

Kasbga yo'naltirish - bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o'zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir. «Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi mavzu yuzasidan joylarda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ularga Oltinsoy tumanidagi 58-maktab psixologi Jo`rayeva Gulbekaning kasbga yo`naltirish

ishlarini misol keltirish mumkin

Malumki, xalqimiz qadimdan yosh avlod tarbiyasi, xususan yoshlarni mehnatga tayyorlash, ularga hunar o'rgatishga alohida etibor berib keladi. Buni hunar-hunardan unar, yigit kishiga qirq hunar oz kabi maqollarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu sohaga etibor yanada kuchaydi. Yangi turdagi ta'lim, jumladan maktabdagi mehnat ta'limi va uni negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib, kollejlarda o'qishni davom ettirishga tayyorlash uchun kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etilishi jadallashtirilmoqda. Ularni o'z ishining ustasi bo'lgan, erkin fikrlaydigan barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatimizning ustivor vazifalari sirasiga kiritilmoqda, zero aynan shunday yoshlar davlatimizning buyuk kelajagini bunyod eta oladi. Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z o'rnini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, shaxsning unga moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish, shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bolalarga qiziqtirgan kasblar haqida ko'plab malumotlarni maktabgacha talim muassasalarida kasb olami haqidagi dastlabki tushunchalar, boshlang'ich mehnat ko'nikmalari o'yinlar orqali beriladi. O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda otaonalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavisyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish

hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'рни va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Kasb tanlashda o'smirlarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Kasblar bo'yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo'lib ular bir-biridan farq qiladi. Bizlar yoshlarni kasbga yo'naltirishda eng kerakli va samarli usullar ya'ni metodikalardan foydalanishimiz lozim deb bilaman. Ulardan birni misol tariqasida keltirib o'tishim mumkin bu "Kettel " so'rovnoma metodi hisoblanadi u yoshlarni qaysi kasbga moyilligini aniqlab beruvchi metod hisoblanadi. Hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri ham shu ya'ni yoshlarimiz kasb tanla olmayotganliklaridir. Prezidentimiz tashabbuslari bilan har bir viloyat, tuman shaharlarimizdagi maktablarda kasb hunarga o'qitishni yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish to'g'risidagi farmonlari orqali ham bunga bo'lgan e'tiborni yaqoll namoyondasi desam adashmagan bo'laman. Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ham shu o'spirin yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasidir. O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarini pedagogik mahorati, bilim saviyasi didaktik qobiliyatlari yuksak bo'lishi qo'shimcha fan to'garaklar o'tilishi, kasb hunarga oid maruzalar o'qilishi kasb-hunar fotoko'rgazmalar tashkil qilishlari zarur. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Kasbga yo'llash o'quv qo'llanma" ning 165-181betlari.
2. K.Jo'raboev. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar. T.,2017 y
3. S.X. Jaliljva va b. Kasb psixologiyasi o'.q. Toshkent-2010